“Chirchiq” kimyo-sanoat texnoparkida yangi ishlab chiqarish korxonasi ish boshladi

// 21.04.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-sanoat-texnoparkida-yangi-ishlab-chiqarish-ko

“Chirchiq” kimyo-sanoat texnoparki hududida zamonaviy “Piton Factory“ korxonasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur korxona elektr energiyasini uzatish va taqsimlash tizimlari uchun mo‘ljallangan, zamonaviy energetika hamda sanoat infratuzilmasida keng qo‘llaniladigan mis va alyuminiy shinoo‘tkazgichlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Loyihaning asosiy ko‘rsatkichlari:

- investitsiya hajmi — 1,5 mln AQSH dollari
- ishlab chiqarish quvvati — yiliga 36 000 metr
- yaratiladigan ish o‘rinlari — 70 ta

Tantanali ochilish marosimida Tatariston Respublikasi sanoat vaziri O. Korobchenko, “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi O. Temirov, “Ximgrad” AJ bosh direktori A. Gizzatulin, shuningdek vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida yangi ishlab chiqarishning hudud sanoatini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati alohida ta’kidlandi. Korxonaning “Chirchiq” texnoparkida joylashtirilishi ayrim turdagi kabel-sim mahsulotlari importini qisqartirish imkonini yaratadi.


с 2011 года.
>700
ТЕНЦИИ:

ВЫХОД
EXIT

ЛИНЕЙКА ОБОРУДОВАНИЯ:
КОМПЕТЕНЦИИ:
R&D-центр
Производство
>700